

ISSN 2181-922X

# **O‘ZBEKISTON:**

## **til va madaniyat**

# **Lingvistika**

2022 Vol. 4 (1)

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

## MUNDARIJA

### Lingvistika

#### **Dilrabo Baxronova, Mohinur Keldiyorova**

Olam lisoniy manzarasida antropozoomorf leksikaning tavsiflovchi roli .....8

#### **Munavvara Qurbonova**

O‘zbek bolalari nutqida sintaktik birliklarning deyktik vazifasi.....18

#### **Гулшан Асилова**

Национальные реалии узбекского языка: проблемы перевода и лингводидактики.....25

#### **Cöre Hudayberdiyev**

Özbek edebî dilinde ses uyumunun yok edilişi.....35

#### **Durdona Mahkamova**

Terminologik tizimda leksik modernizatsiyalashuvning voqelanishi.....45

#### **Muattar Mo‘minova**

Ingliz va o‘zbek tillarida time “vaqt” leksemasi semantikasi.....53

#### **Xilola Uzakova**

“Boburnoma”da “sadoqat” konseptining ifodalanishi .....67

#### **Ma’suma Mo‘minova**

Badiiy matnda “suv” komponentining madaniy kod sifatidagi funksiyasi .....74

#### **Nilufar Azizova**

“Devonu lug‘otit turk” da qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi leksemalar mikromaydoni.....82

#### **Shaxribon Musurmankulova**

O‘zbek-turk frazemalarining parallel korpusini shakllantirishda diaxron yondashuv.....92

#### **Abdullayev Ramazon, Nabiyeva Parvina**

“Boburnoma”dagi ayrim salbiy fe’l-atvor sifat-leksemalarining tezaurusi.....99

- projede de ünlülerin sayısını alti olarak göstermiştir. Byulleten i go Sredne Aziatskogo Gosudarstbennogo Universiteta. Nu: № 6.*
- Polivanov. 1924. *Novaya Kazak - Kirgizskaya (Baytursunovskaya) Orfografiya.* Byulleten Sredne Aziatskogo Gosudarstvennogo Universiteta. № 7.
- Polivanov. 1926. *Etnografiçaskaya Harakteristika Uzbekov.* Taşkent.
- Polivanov. 1928 22 oktyabr. *Nevozmojno Molçat.* Pravda Vostoka.
- Polivanov. 1933. *Uzbekskaya Dialektologiya I Uzbekskiy Yazık.* Taşkent.
- T.Ibrahimov. 1933 26 May. *Özbek Tilinin Birleşken İmlası Proyektı Toğrısında Ba'zı Mülahazalar.* Kızıl Özbekistan.
- Zeki Velidî Toğan. 1999. *Zeki Velidî Toğan. Hâtıralar.* Ankara.

## **Terminologik tizimda leksik modernizatsiyalashuvning voqelanishi**

Durdona Mahkamova <sup>1</sup>

### **Abstrakt**

Maqolada modernizatsiyalashuv jarayoni va uning lisoniy sathda aks etishiga doir fikrlar berilgan. Xususan, til modernizatsiyalashuvini voqelantiruvchi birlamchi leksik unsur termin sifatida baholanib, leksik modernizatsiyalashuv va uning leksik-semantik hamda leksik-struktur modernizatsiyalashuv kabi turlari alohida hodisa sifatida tahlilga tortilgan. Shuningdek, leksik-struktur modernizatsiyalashuv oqibatida vujudga keluvchi termin yasalishi va imlosi bilan bog'liq ayrim muammoli holatlar yoritilgan. Zamonaviy terminologiya, ayniqsa informatsion texnologiyalar terminologik tizimida abbreviaturalar(qisqartmalar) keskin ko'paymoqda. Ularning tilga va terminologiyaga ta'siri, tejamlilik tamoyilining soha terminologiyasida bosh tendensiyaga aylanishi kabi masalalar hamda ularning modernizatsiyalashuvni voqelantiruvchi omil sifatidagi o'zni izohlangan. Tahlil va xulosalar o'zbek terminologik tizimiga oid misollar (kitobatchilik, bank-moliya, pedagogika, information texnologiyalar terminlari) bilan dalillangan.

---

<sup>1</sup> Mahkamova Durdona Ne'matovna - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

**E-pochta:** [d\\_mahkamova@mail.ru](mailto:d_mahkamova@mail.ru)

**Iqtibos uchun:** Mahkamova, D. 2022. "Terminologik tizimda leksik modernizatsiyalashuvning voqelanishi". O'zbekiston: til va madaniyat 4(1): 45-51.

**Kalit soʻzlar:** *modernizatsiya, lingvistik modernizatsiya, til siyosati, leksik modernizatsiya, leksik-struktur modernizatsiya, abbrivatsiya, iqtisodiy tamoyil*

## **Kirish**

Maʼlum bir jamiyatga yangi sohaning kirib kelishi va uning rivojlanishi, shubhasiz, shu jamiyat tili, xususan, uning terminologik tizimiga oʻz taʼsirini oʻtkazadi: tilning lugʻat tarkibi boyiydi, baʼzi yangi tushunchalarga tilda mavjud birliklardan aynan mos tushuvchisi tanlanadi va natijada mavjud soʻzlarga yangi maʼnolar yuklanadi. Yaʼni til modernizatsiyalashuvini voqelantiruvchi birlamchi leksik unsur termin hisoblanadi.

Bugun dunyo hamjamiyati barcha jabhada modernizatsiyalashish jarayonini boshdan kechirmoqda. Aslida modernizatsiyalashuv doimiy jarayon boʻlib, termin sifatida oʻz ichiga “yangilanish”, “oʻzgarish”, “takomillashish”, “zamonaviylashish” kabi qator maʼnolarni qamrab oladi. Lingvistik nuqtai nazardan modernizatsiya jarayonini oʻrganish ham tadqiqotchini hodisani keng qamrovda koʻzdan kechirishga undaydi: sotsiolingvistik hodisa sifatida modernizatsiyani til siyosati, endogloss va ekzogloss vaziyatlar bilan bogʻliqlikda oʻrganish, sof lingvistik hodisa sifatida tizimli jarayon shuningdek, qator yasalish usullari, omillarini hosil qiluvchi sifatida tahlil etishni talab qiladi. Har qanday holda ham modernizatsiya jarayoni mavjud va u lingvistik hosilalarga ega.

## **Lingvistik modernizatsiyalashuvning mohiyati**

Tilshunoslikda mazkur hodisa bir necha koʻrinishga ega boʻlib, terminning birikma shaklidan unga taʼrif berishimiz mumkin:

*Til modernizatsiyasi* – maʼlum bir tilni modernizatsiyalashtirish. Mazkur termin bevosita “til siyosati” termini bilan bogʻlanadi va tilda amalga oshiriluvchi islohotlarni anglatadi.

*Soha modernizatsiyasi* – 1) maʼlum bir soha doirasidagi yangilanish va zamonaviylashish. Sohaga yangi yondashuv va qarashlarning kirib kelishi. Bu asosda yangi yoʻnalish va tarmoqlar faoliyati yuzaga chiqishi; 2) sohaga texnologik imkoniyatlar(mas., informatsion texnologiyalar)ni joriy qilish.

*Leksik modernizatsiya* – Tilning yangi qoʻllanish sohalarida oʻz yoki oʻzlashgan qatlam leksik birliklari asosida yangi leksema(birliklar)ning hosil boʻlishi. Tilshunos T.V.Jerebilo “Lingvistik terminlar lugʻati”da mazkur birliklarning ilm-fan, texnika, siyosiy-ijtimoiy va madaniy sohalar doirasida hosil boʻlishi va sohaning ilgʻor vakillari qoʻllashi, tashabbusi bilan tilga kirib kelishini qayd etadi [Jerebilo, 2010].

Umuman, yuqorida keltirilgan uch birikma termin bir-biriga bevosita bogʻliq. Terminologik modernizatsiyalashuv esa(garchi termin leksik birlik boʻlsa ham) ularning biri vositasida ham, uzviy ketma-ketligi hosilasi tariqasida ham yuzaga chiqishi mumkin.

Til taraqqiyoti bir tomondan yangi atov birliklari, soʻzlar (neologizmlar) hisobiga amalga oshsa, boshqa tomondan tilning boyishi mavjud birliklarning

qayta nomlanishi(yangilanishi) hisobiga yuzaga chiqadi. Mavjud referentlarning yangilanishi lugʻat tarkibining ma'lum bir kichik qisminigina egallab, bevosita konseptlarga aloqador hisoblanadi va konsept tarkibida (garchi yangilangan, qayta nomlangan boʻlsa-da) qat'iy oʻzgarishsiz qoladi. Birinchi jarayon koʻplab lingvistik tadqiqotlar ob'ekti boʻlib hisoblangan, biroq ikkinchi holatda modernizatsiya jarayoni bor va u hamisha tilda mavjud boʻlsa-da, hanuz oʻzining tizimli ta'rifini topmagan. [Shemchuk, 2006].

Har qanday milliy til lugʻat sistemasining, shuningdek, terminologik sistemasining rivojlanishida, takomillashuvida ikki narsaga toʻgʻri amal qilish bu boradagi ishlarning muvaffaqiyatli, ijobiy natijalar bilan yakunlanishini ta'minlaydi: 1) tilning rivojlanishida amal qiladigan qonuniyatlar asosida ish koʻrish; 2)terminga qoʻyiladigan talabdan kelib chiqib ish koʻrish. [Hojiyev, 2008].

### **Muammoni oʻrganish va tahlillar**

Terminologik tizimlar doirasida vujudga keluvchi modernizatsiyani kuzatar ekanmiz, u ham bir necha koʻrinishlarda amalga oshishiga guvoh boʻlamiz:

**1. Leksik-semantik modernizatsiya** – 1) tilda mavjud biror soʻzning terminologik tizimda yangi maʼno hosil qilishi. Mas., *moharrir* – kitobatchilik terminologiyasida: matnni tahrirlash, yaratish bilan shugʻullanuvchi shaxs. Informatsion texnologiyalar terminologik tizimida – matnni tahrirlash, yaratish operatsiyalarini amalga oshiruvchi dastur(*WORD matn muharriri*)

2) sohaga yangi soʻzning kirib kelishi(neologizmlar). a) yangi termin va u bilan butunlay yangi tushunchaning kirib kelishi. Mas., *keshbek* – bank-moliya terminologiyasida: naqd pulni qaytarish ma'nosini anglatib, bank ishi, elektron savdo va biznesda mijozlarni jalb qilish va ularning sodiqligini ragʻbatlantirish maqsadida chegirmalar berishni ifodalash uchun ishlatiladi.

b) tilda mavjud boʻlgan maʼlum bir tushunchaning semantik tarkibida qisman oʻzgarish boʻlishi va ayrim ekstralingvistik omillar taʼsirida mavjud termin oʻrniga yangi terminning kirib kelishi. Mas., *tyutor* – pedagogikada: oliy taʼlim tizimida oʻziga biriktirilgan guruh talabalarining taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyatini nazorat qiluvchi, tashkil etuvchi masʼul shaxs. (Mazkur termin *murabbiy* terminiga semantik jihatdan aynan muqobil sanalsa-da, taʼlimda dars berish funksiyasidan holi alohida faoliyat turi sifatida baholanib, internatsional termin shaklida qoʻllanmoqda)

**2.Leksik-struktur modernizatsiya** – shakli modernizatsiya, yangi yoki mavjud soʻzning yangi, oʻzgargan, qisqargan shaklda terminologik tizimda qoʻllanishi. Mazkur turda terminologik tizimga yangi birlik toʻliq soʻz shaklida emas, balki soʻzning maʼlum bir shakli – abbreviatura sifatida kirib keladi. Eʼtiborli jihati nafaqat tilning umumisteʼmolchilari balki aksariyat soha vakillari tomonidan ham abbreviaturaning yoyilmasi emas aynan qisqartma shakli soʻz (atov birligi) sifatida qabul qilinadi.

Zamonning eng muhim talabi boʻlgan modernizatsiyalashuv bugun barcha sohalar, jamiki uslublar uchun birlamchi oʻringa chiqqan. U aniqlikka, tezlikka, kreativlik va texnik imkoniyatlar kengayishiga asoslanadi. Xususan, ilmiy uslubda ham qisqa vaqt ichida koʻp ma'lumot berish, bu orqali tezkorlik va tejamlilikka

erishish tendensiyasi kechmoqda. Tabiiyki, mazkur jarayon, avvalo, ilmiy uslubning maxsus birliklari – terminlar doirasida kuzatiladi.

Ma'lumki, tildagi tejamlilik tamoyili natijasida talaffuz, yozma nutq uchun qulay bo'lgan birliklar hosil bo'ladi. Mazkur birliklarni qay tarzda, qachon va qaysi o'rinlarda qo'llash termin iste'molchisining ixtiyorida. Gap shundaki, bugun tejamlilik tamoyilining shiddati yanada tezlashdi. Ilmiy uslub birliklari – terminlarni shartli qisqartmalar orqali ifodalash yo'llari bilan tanishar ekanmiz, belgi, formulalar kabi nolingvistik vositalar qatorida lingvistik omillar ham ko'zga tashlanadi. Bunday yasashga misol qilib abbrevatsiya yo'li bilan ifodalangan terminlarni keltirishimiz mumkin. Ayrim ilmiy adabiyotlarda so'z yasashning o'ziga xos usuli sifatida baholangan abbrevatsiya boshqa usullardan ixchamligi bilan xarakterlanadi: u ekonomiya prinsipiga juda mos keladi. Tejamlilik prinsipining abbreviaturalar orqali namoyon bo'lishiga misollarni ba'zi terminologik tizimlarda uchratish mumkin. Buni ayrim yangi soha terminlarining aynan qisqargan variantda tilimizga kirib kelayotgani va nafaqat bir tilning terminologik tizimida, balki dunyo tillarining terminologik sistemasidan joy olayotganida ko'rish mumkin. E'tiborlisi, bunday terminlarning to'liq varianti qabul qilinsa-da o'z qatlam birliklari ishtirokida tarjima qilinmaydi. Sababi bu turdagi abbrevatsion terminlar o'zi ifodalovchi tushuncha, hodisa, predmet bilan birga kirib keladi va vaqtni tejash maqsadida ular tarjima qilib qayta qisqartirilmaydi. Natijada ularning iste'moli aynan qisqargan (abbrevatsion) variantdagi shaklida bo'ladi. Quyida shu turdagi ayrim terminlar haqida fikr yuritimiz.

***PR (pi ar)** – pablik rileyshnz – sohalar ichida eng yosh va zamonaviy kasbiy faoliyat bo'lib, uning tarixiy ildizi XIX asrga borib taqalsa-da, XX asrdagina o'zini to'la namoyon etdi. Hozir jahonda **PR**ning mavqeyi juda baland. Bu faoliyatni hukumat munosabatlarida, xalqaro va millatlararo aloqalarda, savdosotiq, sanoat ishlab chiqarishi munosabatlarida, moliya sohasida, turli tadqiqot hamda ommaviy axborot vositalarida ko'rishimiz mumkin. ... Ayni kunda O'zbekistonda ham **PR** xizmatining ko'rinishi yo'q emas. Masalan, uy oldi-sottisi bilan shug'ullanayotgan firmalar piarmenlar xizmatiga o'xshab ketadi.* [Sa'dullayeva, 2006]

Keltirilgan ilmiy matndan PR terminining ma'naviy tomonlari yanada oydinlashdi. Biroq uning ma'nosi qancha ochilmasin, u PR tarzida yozilaveradi, talaffuz ham qilinaveradi. Bu terminologiya uchun noyob hodisa. Pablik rileyshnzning PR shaklidagi ko'rinishi va qo'llanilishi nafaqat termin o'zlashgan qatlamlarda, balki terminning o'z qatlami ingliz tilida ham norma darajasidadir. Shu sababli PR bilan bog'liq boshqa yasalmalar aynan qisqartmaning o'zidan yasalmogda. Yuqoridagi misolda ishlatilgan *piarmen* termini shunday yasalmalardan biridir: PR + “men” (inglizcha **man** “erkak”, “odam”, ayni termin rus tilida *piaruik* shaklida hosil qilingan va shunday qo'llanishga ega) Mazmunan “PR bilan shug'ullanuvchi shaxs”. Shu o'rinda qisqartma terminning yana bir xususiyati namoyon bo'ladi. Ya'ni “men” so'zini “pablik rileyshnz”ga to'g'ridan to'g'ri qo'shib bo'lmasdi. Qo'shilgan tarzda ham termin konstruksiyasi uch emas bir qancha elementlardan tashkil topardi. Qisqartma esa terminni tez va oson,

shuningdek, ixcham shaklda yasashga imkon yaratdi.

Yana bir jihatni koʻzdan qochirmaslik lozim: tilda sintaktik munosabat hosil qilish maqsadida abbreviaturalarga affikslarni qoʻshib qoʻllash hodisasi avvaldan mavjud (*BMTning qarorgohi*, *MKGa muvofiq*, *EKUBdan olingan natija...*) Biroq biz tilga olgan yuqoridagi kabi terminlar tarjima qilinmay abbreviatura shaklida qabul qilinishi bilan birga ularga nafaqat sintaktik shakl yasovchilar, balki soʻz yasovchi qoʻshimchalar ham bevosita qoʻshilmoqda (ing.*piarmen*, rus.*nuapuyuk*, oʻzb.*piarchi*; rus.*aŭmuuuuk*, oʻzb. *aytichi*). Bu turdagi yasaliş terminelementlar vositasida hosil qilingan konstruksiyalarni eslatadi. Ammo terminelement bilan abbreviaturaning boshqa-boshqa lingvistik hodisa ekanini hisobga olsak, obyektimiz yangi tadqiqotlarga asos boʻlishi mumkin. Umuman, abbreviaturalarning qoʻllanishi tildagi tejamlilikka olib keluvchi ijobiy hodisa sifatida baholanadi. Fan va texnikadagi integrallashuv asrida abbreviaturalarning xorijiy til birliklaridan yasalgani va aynan qoʻllanishini ham qaysidir maʼnoda yaxshi baholash mumkindir, lekin ijobiy jihatlar qatorida ayrim bahsli oʻrinlar ham borki, ularni qayd etish masalaning mohiyatini ochishga yordam beradi.

Taʼkidlanganidek, abbrevatsion shaklda qabul qilinayotgan terminlarning garchi kengaygan varianti bor va ular dastlab manbalarda izohi bilan berilgan boʻlsa-da, oʻzlashtirilayotgan tilga oʻz holicha hech qanday tarjima, muqobillarsiz qabul qilinmoqda. Bu esa oʻqish va oʻqitish, ish yuritish va boshqa sohalarda qator chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Abbreviaturaning mohiyati tushunilsa-da, asl lingvistik maʼnosi yoʻqoladi. Shunchaki qisqartma boʻlgan bosh harflar endilikda mustaqil soʻz darajasiga koʻtariladi. Oʻz oʻrnida, ularning imlosi va talaffuzi masalasida ham ayrim chalkashliklar vujudga kelmoqda. Masalan, ayni paytda *informatsion texnologiyalar* terminining qisqartma shakli **IT[ay ti]** sifatida yozilib, ingliz tili talaffuz meʼyorlari asosida oʻqilmoqda. Undan hosil qilingan “faoliyat bilan shugʻullanuvchi shaxs” maʼnosini anglatuvchi termin esa ITchi, IT mutaxassisi sifatida yozilyapti. Tejamlilik va qisqalikka intilish nuqtai nazaridan buni ijobiy baholash mumkindir, ammo oʻzbek tilining talaffuz meʼyorlari nuqtai nazaridan terminning oʻqilishi kulgili holatlarga sabab boʻladi. Boisi oʻzbek tilida it (hayvon nomi, kuchuk) soʻzi bor va u IT ga omograf sanaladi. Bu borada terminologlar soha vakillari bilan terminlar imlosi, termin yasash masalalari boʻyicha tushuntirish ishlari olib borishlari kerakli tavsiyalarni berishlari lozim, nazarimizda.

Zamonaviy terminologiyaga nazar tashlar ekanmiz, PR qatorida PS [pi es], SMM [es em em] , GIF[gif], ID[ay di] ... kabi qisqartma terminlarning ommalashganiga guvoh boʻlamiz. Bu esa tejamlilik tamoyilining nafaqat tilda balki terminologiyada ham borgan sari kuchli ehtiyojga aylanayotganidan darak beradi. Bugungi hayotni zamonaviy axborot kommunikatsiya tarmoqlari, xususan, internet va ushbu sohada qoʻllanuvchi terminlar sistemasiz tasavvur etishning aslo imkoni yoʻq. Oʻzbek tili terminologiyasi tarkibiga kirib kelayotgan internet terminlari asosan oʻzlashmalardan iborat.[Dadaboyev, 2019]

Abbrevatsion tarzda oʻzlashgan terminlarning analizi baʼzi oʻrinlarda qisqargan terminning yanada qisqa, nutq uchun qulay shaklga kelishi mumkinligini koʻrsatdi. Masalan, zamonamizning eng ommabop abbrevatsion terminlaridan biri

**w.w.w** ( world wide web – “dunyo o‘rgimchak to‘ri” ) o‘zbek tilidagi yozma nutqda aynan o‘zlashgan shaklida ifodalansa-da, uning og‘zaki qo‘llanishi **uch dabl yu** dir (ayrim ommabop nashrlarda xuddi shu tarzidagi qo‘llanishni ham uchratish mumkin). Ma‘lumki, bir tovushni uch karra takrorlash (ayniqsa, u til alifbosi uchun yot bo‘lsa) talaffuzda noqulaylikni keltirib chiqaradi. Aynan shunday holat oldini olish maqsadida w.w.w [dabl yu, dabl yu, dabl yu] yozilsa-da **uch dabl yu** tarzida o‘qiladi. Natijada qisqartma terminning talaffuzi yanada qisqartiriladi. Bu esa og‘zaki bayonning tezlashishiga olib keladi.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, agar yozma nutqda qisqargan va to‘liq shakl parallel qo‘llana boshlasa, qisqargan shakl norma tusini olishi mumkin. Shu bois qisqaruv hodisasiga tildagi ob‘ektiv o‘zgarish, modernizatsiyalashuv hosilasi sifatida yondashish lozim. Mazkur ma‘noda kommunikatsiya jarayonini osonlashtiruvchi, ilmiy uslub ravonligi va ixchamligiga sabab bo‘luvchi qisqargan so‘zlar va so‘z formalarini, agarki ular til me‘yorlariga javob bersa, hech moneliksiz muomalaga va adabiy normaga kiritish mumkin.

Umuman, qisqartmalardan keng foydalanishning sabablari – bu axborot oqimining oshishi, vaqt birligida maksimal axborot uzutilishini ta‘minlashga intilish, tildan unumli foydalanish, uning kommunikativ funksiyasi samaradorligini oshirishdir. Bu, ayniqsa, fan va texnikaning to‘xtovsiz rivojlanishi natijasida ko‘plab yangi, murakkab so‘z birikmalari orqali ifodalanadigan tushunchalar yuzaga kelayotgan hozirgi vaqtda juda muhim. So‘nggi vaqtda, telekommunikatsiyalar sohasidagi ilmiy-texnika adabiyotlarida atamalarning qisqartmalari – abbreviatura va akronimlardan keng foydalanilmoqda. Bu narsa, ayniqsa, axborot va axborotlashtirish sohasidagi nashrlarda, shuningdek, Xalqaro elektr-aloqa ittifoqining nashrlarida ko‘p kuzatilmoqda. [Ahmedova, 2008].

Fikrimiz dalili sifatida O‘zAANing 2007-yil 11-iyuldagi 195-son buyrug‘i bilan amalga joriy qilingan “Telekommunikatsiyalarga oid atamalar qisqartmalarining inglizcha-ruscha-o‘zbekcha lug‘ati”ni keltiramiz. Mazkur lug‘at xorijiy manbalar, ma‘lumotnoma adabiyotlar hamda standartlar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda chastota va to‘lqinlarning turli diapazonlarida ishlaydigan, barcha turdagi aloqa tizimlari va vositalaridan foydalanish bo‘yicha 4500dan ortiq qisqartma hamda shartli belgi berilgan. O‘tgan 10 yildan ortiq muddatda mazkur ko‘rsatkich yanada ortgan, sanalgan ayrim qisqartmalar yangilangan, ehtimol, iste‘moldan chiqqan bo‘lishi ham mumkin.

Tildagi har qanday yangilik nutqda dastlab me‘yoriy birlikning bir ko‘rinishi sifatida amalda bo‘ladi. Keyinchalik uning muomala jarayonida qo‘llanishi qat‘iylashadi va natijada u ham me‘yoriy birlikka aylanadi. Me‘yor almashinuvi jarayonida esa til rivojlanishining “til vositalarini tejashga moyillik” deb nomlanuvchi tamoyillardan biri namoyon bo‘ladi.

Ma‘lumki, terminning dastlabki qo‘llanish davrida u ko‘p komponentli, izohlovchi birliklardan iborat shaklda bo‘ladi. Mazkur shakl termin iste‘molchisiga termin mohiyatini aniqroq ochish, uning semantikasini kengroq tushuntirish uchun xizmat qiladi. Vaqt o‘tishi bilan terminning tushunarlilik darajasi ortib boradi va uni tashkil qiluvchi komponentlar soni ham qisqaradi. [Cabré, 1999] Termin qancha ko‘p komponentli bo‘lsa, uning semantikasikasi shuncha aniqlashib,



torayib boradi. Termin qisqalashishi esa semantikasining kengayishi, ayrim o‘rinlarda noaniqlashishiga olib keladi. Odatda terminologiyada terminning mazmuni mustahkam o‘rnashib, ommalashgachgina tarkibiy qisqarish yuz beradi va bu chalkashliklarga emas aksincha, ixcham va aniq termin qo‘llanishiga imkon yaratadi.[ ГРИНЕВ-ГРИНЕВИЧ, 2008]

Kontekstda asos termini izohlovchi komponentlarsiz qo‘llash hollari kuzatiladi va bunday tejamlilikni mashhur terminshunos olimlar ham yoqlydilar. “Agar butun manba ma’lum mashinaga bag‘ishlangan bo‘lsa, unda mashinaning to‘liq nomi (ya’ni qabul qilingan termin) bilan birga, uning qisqargan shakli ham qo‘llanishi mumkin”, deb yozadi D.S.Lotte. Demak, terminning sohaga kirib kelishi leksik modernizatsiyalashuv jarayoni hisoblanadi va birlikning o‘zi ham qo‘llanish jarayonida modernizatsiyalashadi.

### **Xulosa**

Tilning doimiy ravishda taraqqiy etib boruvchi jarayon ekanligini hisobga olsak, modernizatsiyalashuv jarayonini o‘rganishda tilning dinamik va statik holatini e’tibordan qochirmaslik lozim. Tilning statik holatini butunlay qotib qolgan, harakatsiz jarayon emas, o‘zgarishsiz jarayon sifatida baholash lozim. Dinamik holat deyilganda esa, tilning harakatdagi holati anglashiladi. Tilning dinamik holatini vujudga keltiruvchi omillar bisyor va ularning aksariyati modernizatsiyalashuvni aks ettirishini qayd etish o‘rinli. Lug‘at tarkibining o‘zgarish va yangilanishga moyilligi xorijlik tilshunoslar ta‘biri bilan aytganda “egiluvchanligi” uning tarkibida doimiy ravishda o‘zgarib turuvchi qismlar bo‘lishini asoslaydi. Dinamik faktorlar ta‘sirida yangi leksemalar paydo bo‘ladi. Tilning statik holati esa (u dinamiklik bilan bir vaqtda mavjud) mavjud so‘zning leksikondan birdan chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Turli sohalar terminologik tizimini ko‘zdan kechirar ekanmiz, ular orasida ayrimlarining o‘zgarish (ba‘zan kordinal o‘zgarish)ga moyilligiga guvoh bo‘lamiz. Misol uchun yurisprudensiya, iqtisodiyot, texnika, informatsion texnologiyalar singari sohalar har qanday jamiyat hayotida bevosita siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, ular doimiy modernizatsiyalashib boradi. Bu holat soha terminologik tizimining dinamik ritmini jadallashtiradi.

Yuqoridagilar asosida ta‘kidlash mumkinki, terminologik tizim doimiy modernizatsiyalashuvchi til unsuridir. Bu esa modernizatsiya tushunchasining yangi rakurslarda ochilishini talab etadi.

### **Adabiyotlar**

- Jerebilo, T.V. 2010. *Словарь лингвистических терминов*. Nazran: Piligrim.
- Shemchuk, Y.M. 2006. *Модернизация существующей лексики современного немецкого языка* : автореф. д.ф.н. Москва.
- Hojiyev, A. 2008. *O‘zbek terminologiyasining hozirgi holati va uni takomillashtirish chora-tadbirlari*. Atamashunoslik kasbiy tafakkurni shakllantirishda, fan va ta’limni rivojlantirishda. Toshkent.
- O‘zbek tili grammatikasi*. 1975.1-tom. Toshkent: Fan.
- Sa’dullayeva, O. 2006. *Pablik rileyshnz*. Filologiya masalalari. Toshkent.
- Dadaboyev, H. 2019. *O‘zbek terminologiyasi*. Toshkent.

- Ahmedova, Y. 2008 *Aloqa va axborotlashtirish sohasi terminologiyasi masalalari*. Atamashunoslik –kasbiy tafakkurni shakllantirishda, fan va ta'limni rivojlantirishda. Toshkent.
- Cabré, M.T. 1999. *Terminology: theory, methods and applications*. Amsterdam: John Benjamins B.V.
- Гринев-Гриневич, С.В. 2008. *Терминоведение*. Москва: Академия.

## **The realization of lexical modernization in the terminological system**

Durdona Mahkamova<sup>1</sup>

### **Abstract**

The article gives opinions on the process of modernization and its reflection on the linguistic level. In particular, the primary lexical element that realizes language modernization is evaluated as a term, and lexical modernization and its types such as lexical-semantic and lexical-structural modernization are analyzed as a separate phenomenon. Also, some problematic situations related to the formation and spelling of the term, which arise as a result of lexical-structural modernization, are highlighted. Abbreviations (abbreviations) are increasing sharply in modern terminology, especially in the terminological system of information technologies. Issues such as their influence on language and terminology, the transformation of the principle of economy into the main trend in the terminology of the field, and

---

<sup>1</sup> *Durdona N. Mahkamova* – Teacher of Uzbek Language and Literature University of Tashkent named after Alisher Navoiy

**E-mail:** [d\\_mahkamova@mail.ru](mailto:d_mahkamova@mail.ru)

**For citation:** Mahkamova, D. 2022. “The realization of lexical modernization in the terminological system”. Uzbekistan: Language and Culture 4(1): 45-51.